

**MEDIATA'LIM MUHITIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK
MAHORATINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINING MODEL**

Sulaymonova Ra'no

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10735596>

Anontatsiya. Mazkur maqolada mediata'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini rivojlantirish metodikasining ilmiy jihatdan ishlab chiqilgan modeli va model mazmuni keltirilgan bo'lib, ishlab chiqilgan model kompetentlarini amaliyotda qo'llash orqali mediata'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini rivojlantirish metodikasining imkoniyatlari kengayadi.

Kalit so'zlar: mediata'lim, o'qituvchi, mahorat, kasb, kompetentlik, texnologiya, takomillashuv, metodika, ta'lim, tarbiya, ilmiy izlanish, tadqiqot, adabiyot.

**MODEL OF METHODOLOGY FOR DEVELOPMENT OF PEDAGOGICAL SKILLS
OF FUTURE TEACHERS IN A MEDIA EDUCATION ENVIRONMENT**

Abstract. This article presents a scientifically developed model of the methodology for developing the pedagogical skills of future teachers in the media education environment and the content of the model. the possibilities of the methodology for developing pedagogical skills will expand.

Key words: media education, teacher, skill, profession, competence, technology, improvement, methodology, education, training, scientific research, research, literature.

**МОДЕЛЬ МЕТОДОЛОГИИ РАЗВИТИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ НАВЫКОВ
БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ В СРЕДЕ МЕДИАОБРАЗОВАНИЯ**

Аннотация: В статье представлена научно разработанная модель методики развития педагогического мастерства будущих учителей в среде медиаобразования и содержание модели, возможности методики развития педагогического мастерства расширятся.

Ключевые слова: медиаобразование, педагог, мастерство, профессия, компетентность, технология, совершенствование, методология, образование, подготовка, научные исследования, исследования, литература.

Mediata'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi jarayonida ularning pedagogik mahoratini rivojlantirishning ishlab chiqilgan tarkibiy modeli ochiq, yaxlit va dinamik rivojlanayotgan tizimlardan biri bo'lib, quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topgan bunda maqsad, vazifalar, bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini rivojlantirishga yo'naltirish uchun

ishlab chiqilgan tamoyillar va bunday vaziyatlarga ta'sir qiluvchi, tashqi va ichki omillar, ta'lim mazmunining, rivojlanish shakllariga uning vositalariga, pedagogik mahoratning rivojlanish bosqichlari va natijalari bilan hamohanglik kasb etadi.

Model (fr. Mode. Modulus “o'lchov, analog, namuna”)-o'rganish, ayrim obyektlar haqida ma'lumot olish uchun mo'ljallangan vosita bo'lib, bilim obyektlarini o'z modellari bo'yicha o'rganish, ushbu hodisalarga tushuntirishlar olish, shuningdek tadqiqotchilarni qiziqtirgan hodisalarni bashorat qilish uchun real hayot obyektlari, jarayonlari yoki hodisalari modellarini ko'rish va o'rganish. Modellashtirish – bu boshqariladigan vazifadir, chunki model savollar yoki muammolarni yechimiga qaratiladi.¹

Tadqiqotimizda qo'yilgan muammoni yechish uchun bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini rivojlantirish modelini ishlab chiqish va uni ilmiy asoslash zarur. Chunki, bugungi kunda ta'lim tizimida interfaol ta'lim metodlari, innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda, ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga bo'lgan e'tibor kuchayib bormoqda.

Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini rivojlantirish modelini ishlab chiqishda, talaba shaxsiga ta'sir etuvchi omillar, interfaol ta'lim metodlaridan foydalanib mashg'ulotlarni tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Interfaol (“Inter”-bu uzaro, “act” - harakat qilmoq) – o'zaro harakat qilmoq yoki kim bilandir suxbat, muloqot tartibida bo'lishni anglatadi².

O'qitishning interfaol metodlari - bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil etishning yangicha shakli bo'lib, unda ta'lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilinadilar, ular o'zlari bilgan va o'ylayotgan fikrlarni tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Interfaol ta'lim texnologiyalari va metodlari o'quv mashg'ulotlarida o'qituvchiga, talabalarning o'quv faoliyatini dars maqsadlariga erishishga yunaltirishga olib keladi. tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda modellashtirish jarayoni, hodisalar va obyektlar tizimi modellarini ishlab chiqish va o'rganish orqali tadqiq etish kabi sifatlarni tavsiflaydilar. Odatda ta'lim jarayonida model tadqiq etilayotgan obyekt (yoki hodisa) bo'lib, mazkur obyekt elementlari o'rtasidagi struktura, xususiyatlar, o'zaro aloqalar va munosabatlarni soddalashtirilgan ko'rinishni ifodalaydigan sxema, fizik konstruksiya, belgili shakllar yoki formulalar ko'rinishida sun'iy yaratilgan obyekt sifatida ta'riflanadi.

MDH olimlaridan V.A.Shtoff “Model tadqiqot obyektini aks ettirib yoki ifodalab, uni shunday o'rnini bosadigan va uni o'rganish uchun bizga mazkur obyekt to'g'risida yangi


¹ O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi 6-jild//O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. – Toshkent, 2003. – B. 704.

² Қори Ниёзий номидаги Ўзбекистон педагогика фанлари илмий тадқиқот институти. Педагогик атамалар луғати. Т.: 2008 й. 6 – 28-29

• ZAMONAVIY ILM-FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI •

ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

ma'lumotlarni bera oladigan hayolan tasavvur etiladigan yoki moddiy amalga oshiriladigan tizim tushuniladi"-deb ta'riflagan³.



1-rasm. Mediata'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini rivojlantirish metodikasi modeli.

³ Шоумаров Ш., Шоумаров Ф. Муҳаббат ва оилавий ҳаёт. – Т.: Ибн Сино, 1999 й. – 93 б.

Pedagogik tadqiqotlarda modelning amaliy qiymati, asosan, obyektning o'rganilayotgan tomonlariga nisbatan uning adekvatligi bilan, shuningdek, modelni qurish bosqichlarida modellashtirishning asosiy prinsiplari (ko'rgazmalilik, aniqlik, obyektivlik) qanchalik to'g'ri inobatga olinganligi bilan belgilanadi⁴;

Ilmiy tadqiqotlarda model asosan, pedagogik jarayon va natijani samaradorligiga erishishga xizmat qiladi. Bo'lajak o'qituvshilarning pedagogik mahoratlarini rivojlantirish modelini samarali tashkil etish tanlangan yondashuvlar, shart-sharoitlar bilan o'zaro bog'liq.

Modelning tashkiliy-tuzilmasi maqsadli, mazmunli, tashkiliy pedagogik va natijaviy bloklardan tashkil topgan:

maqsadli blok – model elementlarining tuzilish strukturasi o'rganilayotgan jarayonning asosi bo'lgan.

ijtimoiy buyurtma – Mediata'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini rivojlantirish.

ilmiy tadqiqot ishlari tahlili va kuzatuvlar jarayonida bo'lajak o'qituvchilarni muammoli ta'lim asosida pedagogik mahoratni rivojlantirishga metodik tayyorgarligini takomillashtirishning modeli funksional mavjud bo'lgan to'rtta tuzilmani o'z ichiga olishi aniqlandi: Davlat ta'lim standarti, malaka talablari, umumkasbiy va ixtisoslik fanlari, tanlov fanlaridan kelib chiqib muammoli ta'lim asosida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratlarini rivojlantirishni qamrab oladi.

Maqsadi esa – Mediata'lim muhitida bo'lajak o'qituvshilarning pedagogik mahoratlarini rivojlantirish bo'yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Mazmunli blok – modelda biz qo'yidagi vazifalarni belgilab oldik:

mediata'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini rivojlantirish modeli omillarini o'rganish;

mediata'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini rivojlantirish modeli jarayoni modelini takomillashtirish;

mediata'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini rivojlanganligini baholash mezonlari va daraja ko'rsatkichlari hamda pedagogik mahoratni rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish;

mediata'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini rivojlantirish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

⁴ Михеев В. Моделирование и методы измерений в педагогике.: -М.: Выс. Школа.: 1987 г.

Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratlarini rivojlantirish modelining asosiy tamoyillari:

oliy ta'lim tizimida kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirish tamoyili jamiyat va shaxs maqsadlarini birlashtirish zarurligini ifodalovchi ta'limning yetakchi tamoyili bo'lib, umuminsoniy qadriyatlarining ustuvorligini va bo'lajak o'qituvchilarning erkin holatda rivojlanishini belgilaydi;

fanlarning o'zaro integratsiyalashuv tamoyili – akademik fanlarning birligini nazarda tutadi (pedagogika, psixologiya, falsafa va mutaxassislik fanlari) bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratlarini rivojlantiradi;

mujassamlik tamoyili – kasbiy tayyorgarlik mashg'ulotlarida barcha tarkibiy qismlarning birliklarini ta'minlaydi (o'quv jarayoni, mustaqil ta'lim va o'quv ishlari)";

modellashirish tamoyili – kreativ sifatlarni rivojlantirish jarayonining real ahloqiy, kasbiy va xizmat ko'rsatish muammolarini aks ettiruvchi vaziyatlar modellari bo'lishi kerakligiga asoslanadi;

propedevtika tamoyili – o'qitishning proaktiv xususiyatini amalga oshirishni, bo'lajak o'qituvchilarning kelajakda o'z kasbiy faoliyatida sodir etishi mumkin bo'lgan vaziyatlarni muhokama qilishni nazarda tutadi;

uzluksizlik, intensivlik, algoritmik tamoyili – bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi yo'nalishini, mantig'ini va ketma-ketligini, jadal ravishda harakatlanish dinamikasini belgilaydi.

Pedagogik mahoratni rivojlantirish faoliyatini ishlab chiqishda har bir malaka darajasi uchun zarur va yetarli pedagogik va psixologik shart-sharoitlarni yaratish mumkin. Kognitiv darajadagi muammoli vaziyatli topshiriqlar Z.F. Mazur⁵, G.E. Muraveva⁶, M.P. Sibirskeya⁷, A.G. Rappaport⁸ning fikriga ko'ra, bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini rivojlantirishda quyidagi tamoyillarni hisobga olgan holda amalga oshirish lozim:

kasbiy-pedagogik qobiliyatlarini rivojlantirish tamoyili – bo'lajak o'qituvchilar faoliyatining texnologik jarayondagi modeli sifatida o'quv jarayonining tarkibiy qismida birinchi, ya'ni asosiy narsa – texnologik jarayonlar – ta'lim mazmunining o'zaro ta'siri hisoblanadi.

⁵ Mazur Z.F. Научно-педагогические основы проектирования технологий интеллектуальной собственности в сфере образования: дис. ... доктора пед. наук. – М.: МГПИ, 1998. – 371 с.

⁶ Муравьева Г.Е. Проектирование технологий обучения // Учеб пособие для ВУЗов. – Иваново, 2001. – С. 252.

⁷ Сибирская М.П. Теоретические основы проектирования педагогических технологий в процессе повышения квалификации специалистов профессионального образования: Дис. ... доктора пед. наук. – Томск: ТГПУ, 1998. – С. 357.

⁸ Раппапорт А.Г. Границы проектирования // Вопросы методологии. – М., 2001. – №1. – С. 19–38.

markazlashuv tamoyili – ayrim bo'lajak o'qituvchilar tomonidan qabul qilinishi yoki qilinmasligi mumkin, lekin u katta yoki kichik miqdorda albatta faoliyat ko'rsatadi, dastlab bo'lajak o'qituvchilarni (turli pedagogik jarayonlarda) va keyinchalik ta'lim faoliyatida esa (o'qituvchilik faoliyati) ni boshqarish usullari bilan mashg'ul bo'ladilar;

refleksivlik tamoyili – subyektning o'z faoliyatiga bo'lgan munosabatining xususiyatlarini, bu o'z-o'zini anglash va o'zini tahlil qilish, boshqa insonlarning u haqidagi fikrini va birgalikdagi faoliyatini o'z ichiga oladi. Kasbiy-pedagogik mahoratni rivojlantirish jarayonida o'qituvchi ta'lim jarayoni va shartlari, bo'lajak o'qituvchilarning bilimga bo'lgan ehtiyojlari, ularni qondirish imkoniyatlari, ularning shaxsiy fazilatlar va turli pedagogik qobiliyatlari va pedagogik faoliyatda ularni amalga oshirish imkoniyatlari bilan bog'liq ideal g'oyalarni doimo o'zaro bog'laydi;

bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik mahoratlarini rivojlantirishda pedagog shaxsiga ta'lim jarayonini moslashtirish tamoyili – oliy ta'lim muassasasi tashqarisidagi hayotda bo'lajak o'qituvchilar faoliyat turiga mansub bo'lib, ularni o'zlashtiradilar, ijtimoiy tajribani o'rganadilar. O'quv jarayonining samaradorligi uchun ta'lim mazmuni va bo'lajak o'qituvchilar (Sibirskiy) tomonidan o'zlashtirilgan boshqa faoliyat turlarining integratsiyalashuvini ta'minlash zarur;

turli pedagogik jarayonlarni boshqarishda o'qituvchilik faoliyatini tashkil qilish tamoyili – bu ta'lim faoliyati, ta'lim materiallari mazmuni va bo'lajak o'qituvchilarning o'zaro kommunikatsiya aloqasi bo'lib, bo'lajak o'qituvchilarni bir darajadagi ta'limdan ikkinchisiga yuksaltirishga olib keladi. O'qituvchi faoliyatining tuzilmasi, birinchi navbatda, faoliyat usullari va tartibi bo'lajak o'qituvchilar faoliyatining usullari va tartibi bilan bog'liq bo'lishi kerak. O'quv jarayonini loyihalashda subyektlar faoliyatining tizimlilik va muvofiqliligini tartibga soluvchi talabni bajaradi;

ta'lim jarayonida individuallik tamoyili – bo'lajak o'qituvchilar o'z loyihasini amalga oshiradigan ta'lim jarayonini tashkil etish va boshqarishga yo'naltirilgan. Shu bilan birga, uning shaxsiy xususiyatlari, jumladan, kasbiy yo'nalish, motivatsiya, pedagogik qobiliyat, xarakter, xulq-atvor, ruhiy holatlar, shaxsiy xususiyatlar, o'z-o'zini anglash, shaxsiy uslub, ijodkorlik va boshqalar namoyon bo'ladi. Kasbiy-pedagogik mahoratlarini rivojlantirishda o'qituvchi o'qitish jarayonini o'zi amalga oshirishi kerakligini hisobga olgan holda ishlab chiqadi (A.P.Rappaport);

psixologik yordamni loyihalash tamoyili – qulay psixologik iqlim prinsipi. O'quv jarayonida psixologik iqlim ijobiy o'rganish motivatsiyasini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu tamoyil qatnashchilarda ta'lim jarayoni davomida (Z.F.Mazur) o'zaro muloqotga qaratilgan ijtimoiy ko'nikmalarga ega bo'lishni talab qiladi;

integrativlik va dinamizm tamoyili – kasbiy-pedagogik mahoratlarni rivojlantirishga qodirlik, tashkiliy, psixologik, pedagogik, didaktik va shaxsiy, harkatchanlik, tezlik, taraqqiyotning yuqori sur'atlari kabi omillarni tizimlashtirishga yordam beradi. Modelni qurish tamoyillarini hisobga olgan holda, nazariy va amaliy mashg'ulotlar turli bosqichlarda (2-4-kurslarda) pedagogik faoliyatga tayyorlanish jarayonini aniqlash uchun imkoniyatlardan maqbul foydalanish mumkin bo'lgan holda tashkil etilishi lozim;

faollik tamoyili – inson ta'lim olishining haqiqiy, chinakam mohiyati o'zining aqliy faoliyati natijasida bilimning yangi-yangi sir-asrorlarini mustaqil ravishda anglab olishidir. Bo'lajak o'qituvchilar o'z harakati bilan o'z mutaxassislik fanlarini muntazam o'rganadi va o'zlashtiradi. Bo'lajak o'qituvchilar o'quv jarayonini shunday tashkil qilish kerakki, ularning o'zlari fanga qiziqishi, uni bilishga harakat qilishi va intilishi bilan belgilanadi. Buning uchun bo'lajak o'qituvchilar darsga faol qatnashishi lozim;

ilmiylik tamoyili – bu tamoyil har qanday o'quv predmeti, o'quv material fanining zamonaviy yutuqlariga tayanishi lozimligini ko'rsatadi. Ushbu tamoyil, eng avvalo, o'quv dasturlar, o'quv qo'llanmalarni yaratish jarayonida amalga oshiriladi. Ilmiylik tamoyiliga muvofiq har yili fanlarning ishchi o'quv rejalari va o'quv materiallarini takomillashtirish, muammoli mashg'ulot o'tkazish talab etiladi. Ilmiylik shakli va fanning tili o'rganiladigan predmetlar xarakterining asosiy ko'rsatkichlari hisoblanadilar. Ilmiy axborotni ifoda etilish aniqligi va qat'iyligi, uni ifoda etish tizimi va aloqalariga katta e'tibor qaratishni talab etadi;

loyihalash tamoyili – bu tamoyil, pedagogik texnologiyaning eng muhim xususiyatlaridan birini belgilaydi. Loyihalanish tamoyili – bu o'quv jarayonini tashkil etish, hujjatlarini – o'quv jarayoni grafigi; ishchi o'quv reja; fanning ishchi o'quv dasturi; fanning, bo'limlarning, tayanch iboralarining o'quv maqsadlari toifalari; o'qitish jarayoni texnologiyasi, egallangan bilim va malakalarni baholash – oldindan yaratishni anglatadi. Ishlab chiqilgan hujjatlar asosida o'quv jarayoni amalga oshiriladi. Bu hujjatlarning barcha bandlariga rioya etilishi, rejalashtirilgan natijalarga erishishni kafolatlaydi;

boshqariluvchanlik tamoyili – pedagogik texnologiya o'qitishning rejalashtirilgan natijalariga erishishni kafolatlaydi. Bunga, faqat o'quv jarayoni boshqariladigan taqdirdagina erishish mumkin. Boshqariluvchanlik tamoyilining ahamiyati shu bilan belgilanadi. Boshqarish – jarayonni rejalashtirilgan holda amalga oshirish, o'qitish maqsadlariga erishish dasturini ro'yobga chiqarish uchun xizmat qiladi;

samaradorlik tamoyili – pedagogik texnologiya orqali o'qitishning ko'zlangan natijalariga maqbul xarajatlar bilan kafolatli erishish imkoniyatini yaratishini ko'rsatadi. O'quv

jarayonining samaradorligiga pedagogik texnologiyaning yuqorida bayon etilgan tamoyillari: - ilmiylik, loyihalanish, tizimlilik, maqsadga yo'naltirilganlik, faoliyat yondashuvi, boshqariluvchanlik, qayta takrorlanuvchanlikni amalga oshirib erishiladi.

Tadqiqot ishimizni bajarishda biz pedagogik-psixologik mashg'ulotlarni tashkil etishni har-xil shakl va usullariga murojat qildik: ma'ruza, seminar va amaliy, guruhli, mustaqil ta'lim mashg'ulotlari, maslahat va mustaqil ishlar, amaliy mashg'ulotlar, ta'lim muassasalarida amaliyot o'tash bizning tadqiqotimizni amalga oshirish jarayonida muhim ahamiyat kasb etdi; bu esa kichik bosqichlarda boshlang'ich olingan bilimlarni faollashtirdi va bo'lajak o'qituvchilarga motivatsiya berdi va qiziqishlarini o'yg'otdi; natijada pedagogik mahoratlari rivojlangan bo'lajak o'qituvchilar bo'lib kelajakda yosh avlodning sifatli ta'lim olishiga o'z hissalarini qo'shadilar.

REFERENCES

1. Щуркова Н.Е. Педагогическая технология // Педагогическое общество России, – М.: 2002. – М. 224.
2. Ro'ziyeva D.I., Tolipov O'.Q. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat // Barcha magistratura mutaxassisliklari uchun o'quv qo'llanma. – Toshkent. 2017. – Б.
3. Мазур З.Ф. Научно-педагогические основы проектирования технологий интеллектуальной собственности в сфере образования: дис. ... доктора пед. наук. – М.: МГПИ, 1998. – 371 с.
4. Муравьева Г.Е. Проектирование технологий обучения // Учеб пособие для ВУЗов. – Иваново, 2001. – С. 252.
5. Сибирская М.П. Теоретические основы проектирования педагогических технологий в процессе повышения квалификации специалистов профессионального образования: Дис. ... доктора пед. наук. – Томск: ТГПУ, 1998. – С. 357.
6. Раппапорт А.Г. Границы проектирования // Вопросы методологии. – М., 2001. – №1. – С. 19–38.
7. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi 6-jild//O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. – Toshkent, 2003. – В. 704.